



SEMANTIC STRUCTURE AND STYLISTIC FEATURES OF NEWSPAPER TOPICS(ON THE EXAMPLE OF KARAKALPAK AND ENGLISH NEWSPAPERS)

Nurlimuratova Periyzat Oserbayevna

Department of English Language and Literature, Faculty of Foreign
Languages, NSPI named after Ajiniyaz, 1st year basic doctoral student in
the specialty 10.00.06 "Comparative Literary Studies, Comparative
Linguistics and Translation Theory"

<https://doi.org/10.5281/zenodo.15671795>

ARTICLE INFO

Received: 09th June 2025

Accepted: 15th June 2025

Online: 16th June 2025

KEYWORDS

Newspaper language,
semantic structure,
stylistic features,
Karakalpak press, English
press, metaphor, epithet,
mass media, journalism,
cultural differences.

ABSTRACT

This article analyzes the semantic structure and stylistic features of newspaper materials in Karakalpak and English languages, using examples from Qaraqalpaqstan Jasları, Erkin Qaraqalpaqstan, Jetkinshek, Shımbay Hawazı, Vesti Karakalpakstana, and several English-language newspapers. The study examines the logical consistency of information presentation, the use of lexical-semantic tools, and the role of stylistic devices in deepening meaning. While English newspapers tend to follow a clear, concise, and standardized structure aligned with international journalism norms, Karakalpak newspapers often maintain a more formal and traditional tone. The paper also explores how linguistic choices reflect cultural and socio-communicative differences between the two media contexts.

GAZETA SARLAVHALARINING SEMANTIK STRUKTURASI VA STILISTIK XUSUSIYATLARI (QORAQALPOQ VA INGLIZ GAZETALARI MISOLIDA)

Nurlimuratova Periyzat Oserbayevna

Ajiniyoz nomidagi NDPI Chet tillar fakulteti Ingliz tili va adabiyoti kafedrası 10.00.06 "Qiyosiy
adabiyotshunoslik, qiyosiy lingvistika va tarjima nazariyasi" ixtisosligi 1-bosqich tayanch doktoranti
<https://doi.org/10.5281/zenodo.15671795>

ARTICLE INFO

Received: 09th June 2025

Accepted: 15th June 2025

Online: 16th June 2025

KEYWORDS

Gazeta tili, semantik
struktura, stilistik
xususiyatlar, qoraqalpoq
matbuoti, ingliz
matbuoti, metafora,
epitet, ommaviy axborot
vositalari, jurnalistika,
madaniy tafovut.

ABSTRACT

Ushbu maqolada qoraqalpoq va ingliz tillaridagi gazetalarning (xususan: Qaraqalpaqstan jasları, Erkin Qaraqalpaqstan, Jetkinshek, Shımbay hawazı, Vesti Karakalpakstana hamda ingliz tilidagi nufuzli nashrlar) materiallari semantik struktura va stilistik xususiyatlari jihatidan tahlil qilinadi. Tadqiqot davomida har ikki tildagi gazetalarda axborotning mantiqiy izchillikda berilishi, leksik-semantik qurilmalarning qo'llanishi, va stilistik vositalar orqali mazmunning chuqurlashtirilishi o'rganildi. Ingliz matbuotining aniqlik va qisqalikka asoslangan bayon uslubi qoraqalpoq matbuotidagi rasmiy va an'anaviy ifoda uslubi bilan solishtirildi. Shuningdek, har ikki til matbuotining lingvistik xususiyatlari orqali ularning madaniy va sotsiokommunikativ tafovutlari ochib berildi.



Kirish. Matbuot – jamiyat fikrining aks sadosi bo'lib, unda xalqning ijtimoiy, siyosiy, madaniy hayoti ifodasini topadi. Ayniqsa, gazeta materiallari orqali har bir xalqning madaniyati, dunyoqarashi, til boyligi va stilistik didi o'ziga xos tarzda namoyon bo'ladi. Qoraqalpoq va ingliz gazetalari mazmunida semantik struktura va stilistik xususiyatlarning tahlili bu xalq madaniyatlari o'rtasidagi o'zaro farq va umumiyliklarni aniqlashda muhim vosita bo'la oladi. Mazkur maqolada Qoraqalpog'iston Respublikasida chop etiladigan "Qaraqalpaqstan jaslari", "Erkin Qaraqalpaqstan", "Jetkinshek", "Shimbay hawazi", "Vesti Karakalpakstana" kabi gazetalar bilan ingliz tilidagi ommabop nashrlar (masalan, *The Guardian*, *The Times*, *BBC News Online*) taqqoslanadi. Tahlil asosan semantik mazmun va stilistik vositalarning qo'llanilishiga qaratiladi.

Birinchidan, Qoraqalpoq gazetalari va ingliz gazetalari o'rtasida semantik struktura jihatidan muayyan farqlar mavjud. Qoraqalpoq gazetalari ko'proq ijtimoiy-ma'naviy hayotga, mahalliy voqealarga e'tibor qaratgan bo'lsa, ingliz gazetalari esa global muammolar, xalqaro siyosat, iqtisodiyot kabi dolzarb mavzularga ko'proq urg'u beradi. Masalan, "Erkin Qaraqalpaqstan" gazetasining 2025-yil may sonida chop etilgan "Yoshlar bilimli bolsa – kelajagi porloq bo'lar" sarlavhali maqolasida ta'lim va yoshlar masalalari ko'tarilgan. Bunda semantik struktura "mavzu – sabab – natija" tamoyiliga asoslangan. Aksincha, "The Guardian" gazetasida berilgan "Climate crisis now threatens coastal cities" maqolasida esa "holat – xavf – yechim" modeliga asoslangan semantik qurilma kuzatiladi. Shu bilan birga, Qoraqalpoq gazetalarda mavzular odatda milliy qadriyatlar va hududiy ijtimoiy-siyosiy faoliyat atrofida shakllanadi. "Shimbay hawazi" gazetasida "Xalqaraliq sheberlik korgizbesi otkizildi" kabi maqolalar madaniyat va hududiy yangiliklarga bag'ishlangan bo'lib, mavzu torroq doirada yoritiladi. Bu esa semantik strukturaning mahalliylikka yo'naltirilganini ko'rsatadi. Boshqa tomondan, ingliz gazetalari mavzularni global kontekstda ochib beradi. "BBC News" portalida joylashtirilgan "Artificial Intelligence: Boon or Threat to Humanity?" maqolasi butun insoniyat oldidagi dolzarb savollarni ko'ndalang qo'yadi [2, 307-309].

Shuni ta'kidlash kerakki, stilistik vositalar har bir gazetaning tahririyat siyosati va auditoriyasiga bog'liq holda tanlanadi. Qoraqalpoq gazetalari, xususan "Qaraqalpaqstan jaslari" yoshlar auditoriyasiga mo'ljallangan bo'lib, stilistik jihatdan sodda, ammo hissiyotga boy til uslubini qo'llaydi. Unda ko'p hollarda metaforalar, maqollar va poetik birliklarga duch kelish mumkin. Masalan: "*Búgingi bilim – keleshek tiykari*" tarzidagi iboralar ko'pincha ruhlantiruvchi konnotatsiyani beradi. Shu bilan birga, "Jetkinshek" bolalar gazetasi bo'lgani uchun unda obrazli ifodalar, qisqa va jonli gaplar, ba'zan dialogik shakllar ustunlik qiladi. Bular bolalarga mo'ljallangan bo'lgani bois stilistik jihatdan soddalashtirilgan. Ingliz gazetalari esa, ayniqsa, *The Times* yoki *The Economist* singari nashrlar rasmiy uslubga, ob'ektivlikka, analitik tahlilga tayanadi. Stilistik vositalar minimal darajada bo'lib, asosan passiv gaplar, iqtiboslar, statistikalar bilan boyitiladi. Shunga qaramay, ommabop nashrlarda, masalan "The Sun" yoki "Daily Mail" kabi gazetalar hissiy ifodalar, shov-shuvli sarlavhalar ("Shocking! Man survives 3 days in freezing lake!") orqali o'quvchining diqqatini jalb etishga harakat qiladi.

Gazeta materiallarida semantik va stilistik uyg'unlik – bu matn mazmunining (ya'ni semantik strukturasining) tildagi ifoda uslublari (stilistik vositalar) bilan muvofiqligi demakdir. Ushbu uyg'unlik jurnalistik matnning informativligi, o'quvchiga ta'sirchanligi va o'qilishi qulay bo'lishini ta'minlaydi. Qoraqalpoq va ingliz gazetalari misolida bu uyg'unlik



turli darajalarda va uslublarda namoyon bo'ladi. Avvalo, Qoraqalpoq gazetalarida semantik struktura ko'pincha ijtimoiy-falsafiy yoki madaniy kontekst bilan boyitilgan bo'lsa, stilistik vositalar esa bu mazmunni hissiy va obrazli ifodalar bilan kuchaytiradi. Masalan, *"Jetkinshek"* bolalar gazetasidagi maqolalarda mavzular soddalashtirilgan tarzda, lekin emotsional va jonli til vositalari bilan yoritiladi. Bu yerda semantik maqsad – bolaga tushunarli bo'lishi bo'lsa, stilistik tanlov – obrazlilik, dialogik shakl, jonli ifodalar orqali unga erishishdir. Demak, semantik maqsad va stilistik vosita o'zaro uyg'unlashadi. Yana bir misol sifatida "Erkin Qaraqalpaqstan" gazetasini olaylik. Unda rasmiy axborotlar, hukumat qarorlari, ijtimoiy sohadagi islohotlar haqida maqolalar keng yoritiladi. Bunday hollarda mavzular aniq faktlar asosida quriladi (semantikani belgilaydi), stilistik vositalar esa rasmiy va neytral uslubni tanlaydi. Jumladan, passiv gaplar, terminlar, iqtiboslar orqali axborotga obyektiv tus beriladi. Bu esa gazetaning informatsion vazifasiga mos tushadi. Aksincha, ingliz gazetalarida bu uyg'unlik jurnalistikaning janri va yo'nalishiga qarab farqlanadi. Masalan, *The Guardian* yoki *The Times* kabi jiddiy nashrlarda tahliliy maqolalar mavzusi qat'iy mantiqiy asosga (problem – sabab – echim modeli) qurilgan bo'lsa, stilistik vositalar ham shunga monand – rasmiy, bexolis, murakkab jumlar, statistik ma'lumotlar bilan ifodalanadi. Bu yerda semantik tuzilma va stilistik yondashuv o'zaro muvofiqlikda ishlaydi. Boshqa tomondan, *The Sun* yoki *Daily Mail* singari ommabop gazetalar o'z mavzularini shov-shuvli, dramatik holatlarda ochib berishga intiladi. Stilistik jihatdan sarlavhalarda hiperbola, iqtiboslar, hissiyotga yo'naltirilgan iboralar qo'llaniladi. Semantik struktura esa sodda: voqea — baho — hissiy yakun. Demak, bu yerda ham stilistik vosita semantik maqsadga to'liq mos keladi. Shu nuqtai nazardan qaraganda, har ikkala matbuotda ham semantik struktura va stilistik vositalar uyg'unligi gazetani o'quvchiga ta'sirchan va maqsadga muvofiq qilishning asosiy vositasidir. Biroq bu uyg'unlik har bir til va madaniyatda o'ziga xos uslubda amalga oshiriladi. Qoraqalpoq matbuoti o'z milliylik, obrazlilik va emotsionallik orqali bu uyg'unlikka erishsa, ingliz matbuoti esa tahlilchanlik, aniqlik va neytrallik orqali shu uyg'unlikni ta'minlaydi.

Gazeta materiallarining semantik strukturasini tahlil qilish ularning mazmuniy qatlamini chuqur anglashga xizmat qiladi. Har bir maqola o'z semantik yadrosiga, ya'ni asosiy g'oya yoki axborotga ega. Bu yadro atrofida qo'shimcha kontekstlar, izohlar, iqtiboslar, statistik ma'lumotlar yoki voqealar tafsilotlari joylashadi. Mazkur qatlamlar matnning semantik strukturasini tashkil qiladi va uning mantiqiy tartibini belgilaydi. Birinchidan, Qoraqalpoq gazetalar misolida semantik strukturani ko'rib chiqadigan bo'lsak, "Qaraqalpaqstan jaslari" yoki "Shimbay hawazi" kabi gazetalarda ko'pincha sarlavhadan boshlab asosiy fikrga olib boruvchi bosqichma-bosqich tuzilma kuzatiladi. Ya'ni, maqola avvalida mavzuga kirish, keyin asosiy voqea bayoni va oxirida muallifning xulosasi keltiriladi. Bunda semantik birliklar aniq mantiqiy ketma-ketlikda joylashadi. Masalan, yoshlar faoliyati haqida yozilgan maqolada quyidagi semantik bloklar bo'lishi mumkin: muammo mavjudligi – tashabbus – amalga oshirilgan ishlar – kutilayotgan natijalar. Ikkinchidan, "Vesti Karakalpakstana" kabi rus tilidagi gazetalarda esa semantik struktura ko'proq faktlarga tayanadi. Axborot bayoni markaziy semantik yadroni tashkil etadi. Qo'shimcha struktura esa iqtiboslar va statistik ma'lumotlar orqali kengaytiriladi. Shunday qilib, bu turdagi maqolalar ko'proq faktologik semantikaga asoslanadi, ya'ni asosiy voqeaning sabab va oqibatlarini mantiqan bog'lashga urg'u beriladi. Uchinchidan, ingliz gazetalarida semantik struktura juda



tizimli va qat'iy me'yorlarga asoslangan. Ayniqsa, *The Guardian* yoki *BBC News* singari nashrlarda maqola odatda quyidagi tartibda tuziladi: 1) kirish (asosiy savol yoki muammo), 2) asosiy voqea bayoni (kim, nima, qachon, qayerda, nega), 3) ekspert yoki rasmiy shaxslar fikri, 4) muallif xulosasi yoki jamiyat uchun ahamiyati. Bu ketma-ketlik semantik jihatdan o'quvchiga aniq va to'liq tushuncha berishga qaratilgan. Bundan tashqari, ba'zi maqolalarda inklusiv semantikalar, ya'ni jamiyatdagi turli guruhlar manfaatlarini aks ettiruvchi ma'nolar ham mavjud. Bu holat ko'proq ingliz ommaviy axborot vositalarida uchraydi. Masalan, iqlim o'zgarishi yoki gender tengligi haqidagi maqolalarda mavzu bir guruh emas, balki keng ommani qamrab oluvchi semantik yondashuvda quriladi. Shu bilan birga, mavzuga qarab semantik struktura o'zgarib boradi. Iqtisodiy yangiliklar aniq raqam va faktlarga asoslangan bo'lsa, madaniy maqolalar esa hissiy, obrazli va tarixiy kontekstlarni o'z ichiga oladi. Demak, har bir maqolaning semantik strukturasi uning mavzusi, janri va maqsadli auditoriyasiga bevosita bog'liq. Xulosa qilib aytganda, qoraqalpoq va ingliz gazetalarini tahlili shuni ko'rsatadiki, semantik struktura nafaqat matnning mantiqiy tashkilotchisi, balki o'quvchi bilan aloqa vositasi ham hisoblanadi. Uning ravon va izchil bo'lishi gazetadagi har bir axborot birligi o'z o'rnida turganidan dalolat beradi [4, 343-347].

Gazeta materiallarining uslubiy (stilistik) xususiyatlari ularning kommunikativ samaradorligida muhim o'rin tutadi. Stilistik vositalar – bu jurnalistning mazmunni qanday til vositalari bilan ifodalashini belgilovchi omillar bo'lib, ular matnning o'qiluvchanligi, hissiy ta'siri va ma'lumot yetkazish darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Shuning uchun ham har bir gazeta o'z janriga, auditoriyasiga va mavzusiga qarab ma'lum stilistik yondashuvni tanlaydi. Avvalo, Qoraqalpoq gazetalarining stilistik tavsifiga e'tibor qaratadigan bo'lsak, "Qoraqalpoqstan jaslari" gazetasi yosh auditoriyaga mo'ljallangani uchun unda jonli, obrazli va ko'p hollarda nutqiy dialogga yaqin uslub qo'llaniladi. Bunda epitet, tashbih, muqoyasa kabi badiiy vositalar maqola ifodasini hissiy va esda qolarli qiladi. Masalan: "Zamonaviy yosh – bu kelajak ko'zgusi" kabi jumlar, shunchaki axborot emas, balki motivatsion ta'sirga ega bo'ladi. Boshqa tomondan, "Erkin Qoraqalpoqstan" yoki "Shimbay hawazi" singari gazetalarda rasmiy va ijtimoiy-siyosiy yo'nalishdagi maqolalar ustun bo'lgani sababli, stilistik uslublar ham rasmiy va neytral tusda bo'ladi. Terminologik birliklar, passiv konstruktsiyalar va faktlarga asoslangan iboralar ko'p qo'llaniladi. Bu esa matnga ishonchlilik va obyektivlik bag'ishlaydi. Shuningdek, rus tilida chop etiluvchi "Vesti Karakalpakstana" gazetasida ham stilistik uslub ko'proq informativ xususiyatga ega. Unda ko'proq fakt, statistik raqamlar, rasmiy shaxslarning iqtiboslari orqali mavzu ochib beriladi. Uslub an'anaviy jurnalistik tildan chekinmaydi, biroq ba'zan obrazli iboralar va metaforalarga ham murojaat qilinadi, ayniqsa madaniyat yoki sportga oid maqolalarda. Endi esa ingliz gazetalarida kuzatiladigan stilistik yondashuvlarni ko'rib chiqamiz. Masalan, *The Guardian* yoki *The Times* singari nashrlarda maqolalar, odatda, rasmiy uslubda yozilgan bo'lsa-da, matnlar o'qishga yengil va tushunarli bo'lishi uchun murakkab iboralardan qochiladi. Jurnalistlar ko'pincha qisqa va aniq gaplar, faol zamondagi fe'llar, bevosita murojaatlar, iqtiboslar va statistik ma'lumotlar orqali matnning stilistik kuchini oshiradi. Bundan tashqari, ayrim maqolalarda ironiyali yondashuv, istiora va kinoya elementlari ham uchraydi. O'z navbatida, *Daily Mail* yoki *The Sun* kabi ommabop gazetarlar emotsional, soddalashtirilgan va ba'zida provokatsion uslubni qo'llaydi. Bunday stilistika o'quvchining diqqatini tortish, unda hissiy javob uyg'otish uchun xizmat



qiladi. Sarlavhalarda ba'zan kuchli ifodalar, sensatsion iboralar va so'z o'yinlari (pun)dan foydalaniladi. Bu esa maqolaning semantik maqsadi bilan to'g'ridan-to'g'ri uyg'unlashadi. Umuman olganda, stilistik xususiyatlarning funksional ahamiyati shundaki, ular mazmunni o'z o'rnida samarali yetkazishga xizmat qiladi. Har bir stilistik tanlov – bu jurnalistning o'quvchi bilan qanday “suhbat” qurishini belgilovchi vosita bo'lib, u gazetaning umumiy konsepsiyasi, nishonli auditoriyasi va axborotning xususiyatiga qarab belgilanadi.

Xulosa. Qoraqalpoq va ingliz tillaridagi gazeta materiallarining semantik struktura va stilistik xususiyatlarini tahlil qilish natijasida ularning umumiyliklari va farqlari aniqlandi. Har ikkala tildagi gazetalar axborotni mantiqiy izchillikda bayon qilishga intiladi. Ingliz gazetolari qat'iy struktura va xalqaro standartlarga amal qilsa, qoraqalpoq matbuotida bu nisbatan erkinroq tarzda aks etadi. Stilistik jihatdan ingliz gazetolari sodda va qisqa ifodalar bilan axborotni tez yetkazishga yo'naltirilgan, qoraqalpoq gazetalarida esa rasmiy va an'anaviy uslub ustunlik qiladi. Har ikkala matbuotda epitet, metafora, tashbih, ironik iboralar kabi stilistik vositalar qo'llaniladi, ammo ularning qo'llanish darajasi va maqsadi farqlidir. Xulosa qilib aytganda, gazeta tili jamiyat madaniyati, axborot talabi va jurnalistik me'yorlar bilan uzviy bog'liq bo'lib, bu qoraqalpoq va ingliz matbuoti o'rtasidagi kontekstual farqlarni shakllantiradi.

References:

1. Dilshod, A., Zilola, A., & Ismoil, R. (2025). INGLIZ MANBALARIDA 1927–1938 YILLARDA O 'ZBEKISTON MADANIY MANZARALARI: REPORTAJLAR, JURNALLAR VA ARXIV HUIJJATLARI TAHLILI. *YANGI O 'ZBEKISTON, YANGI TADQIQOTLAR JURNALI*, 2(9), 11-27.
2. GAFUROVA, G. (2025). PUBLITSISTIK MATNLAR TARJIMASIDA LEKSIK VA STILISTIK TA'SIRNI QAYTA IFODALANISHI. «*ACTA NUUZ*», 1(1.2), 307-309.
3. Mirxamidovna, M. G. (2023). PUBLISISTIKA USLUBIDA MAQOL VA MATALLARNING IFODALANISH XUSUSSIYATLARI. *Journal of Universal Science Research*, 1(5), 594-599.
4. Nodirabegim, S. (2024). Media matnlarining pragmatik xususiyatlari. *QO 'QON UNIVERSITETI XABARNOMASI*, 13, 343-347.
5. Камбарова, Д. (2022). Роль газеты при обучении английскому языку и методы работы с газетным материалом. *Общество и инновации*, 3(5/S), 212-216.